

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TO‘XTAYEV HAKIM PRIMOVICH

**ZAMONAVIY AKSILOGIYA QONUNIYATLARINING YANGI
O‘ZBEKISTONGA XOS NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

To‘xtayev Hakim Primovich

Zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarining Yangi O‘zbekistonga xos namoyon bo‘lish xususiyatlari.....3

Тухтаев Хаким Примович

Особенности проявления современных аксиологических закономерностей в Новом Узбекистане.....31

Tukhtaev Khakim Primovich

Features of the manifestation of modern axiological patterns in New Uzbekistan.....61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....67

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TO‘XTAYEV HAKIM PRIMOVICH

**ZAMONAVIY AKSILOGIYA QONUNIYATLARINING YANGI
O‘ZBEKISTONGA XOS NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc/Fal144 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ik-falsafa.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Nazarov Qiyom Normirzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aliyev Bekdavlat
falsafa fanlari doktori, professor

Tulenova Gulmira Jandarovna
falsafa fanlari doktori, professor

Huseynova Abira Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy Kengashning 2024-yil «06»-iyun soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Yoshlar Ittifoqi markazi. Tel.: (+99871) 246-67-72, faks: (+99871) 246-67-72; E-mail: ik-falsafa@nuu.uz

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№43 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 23-may kuni tarqatildi.

(2024-yil 23-maydagi 7-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

G.Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'.G'.Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida umumbashariy va milliy qadriyatlar integratsiyasi insoniyat ilm-fan hamda madaniyat xazinasini boyitishda ustuvor o'rinni egallab kelmoqda. Biroq zamonaviy dunyoda qadriyatlar tanazzuliga sabab bo'layotgan muhim omillardan biri, global manfaatlar to'qnashuvi insoniyatni jiddiy tashvishga solmoqda. Aynan shu zamonaviy sivilizatsiya qadriyatlarini inqirozi insonparvarlik, tinchlikparvarlik, millatlararo totuvlik, erkinlik kabi umumbashariy tamoyillarning baholanishiga sabab bo'layotgan aksiologik qonuniyatlarning yangi ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyoning nufuzli universitetlari hamda ilmiy tadqiqot institutlaridagi ilmiy markazlarda, G'arb va Sharq madaniyati qadriyatlar transformatsiyasining jamiyat hayotidagi o'rni hamda ahamiyatiga, aksiologik qonunlar nazariyasi va amaliyotining yangilanishi uning ratsional hamda konstruktiv jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shuning bilan bir qatorda, zamonaviy dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, aksiologiya sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarda kreativ va ta'sirchan usullarni qo'llash, aksiologik jarayonlarni muttasil ilmiy monitoring va prognozlashtirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik fazilatlarini mustahkamlash, aksiologik jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar sohasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillar davomida milliy va umuminsoniy qadriyatlar talabiga mos jamiyat qurish muhim hisoblanadi. Bu borada «Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir»¹. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining negizida «Inson qadri uchun» degan ulug'vor g'oyani amalga oshirilishi, shuningdek, 2022-yilni «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili», 2023-yilni «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» deb nomlanishi vatanimizda yashayotgan har bir inson qadrini ulug'lash, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Ayni paytda, O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishining aksiologik masalalari hamda uning bugungi amaliyot bilan uzviy bog'liqlik dialektikasini chuqur va har tomonlama o'rganish vazifalari ham dolzarblashib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yolimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 1-tom. – B. 88-89.

samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida», 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.² Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan, Cambridge Universiteti, Manchester Universiteti, Oxford Universiteti, (Buyuk Britaniya), Massachusetts Instituti, Indiana Universiteti (AQSh), Kyoto Universiteti (Yaponiya), Seul milliy Universiteti, (Janubiy Koreya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston), O'zbekiston Milliy universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahonda zamonaviy aksiologiya qonuniyatlariga oid tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarining integratsiyasi anglo-sakson xalqlari qadriyatlarini asosida ochib berilgan (Oxford University, Buyuk Britaniya); Angliya va Amerika falsafasida qadriyatlarning turli determinantlariga ko'ra predmetli aksiologiya, obyekt aksiologiyasi, ikki faktorli aksiologiya va uch faktorli aksiologiya, qadriyatlar korrelyatsiyalari tasnifi ochib berilgan (Cambridge Universiteti; Manchester Universiteti, Buyuk Britaniya, Massachusetts Instituti, AQSh), global nuqtayi nazardan Yaponiya qadriyatlar tizimi Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Hindiston, Janubiy Osiyoning boshqa mamlakatlari, Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Sharqiy Yevropa, Markaziy Amerika va Janubiy Amerika kabi boshqa mamlakatlar qadriyat sohasi rivojiga ta'sir ko'rsatganligi ochib berilgan (Kyoto Universiteti, Yaponiya), inson mavjudligining aksiosferasining birlamchi darajasi sifatida ko'rib chiqilgan (Seul Milliy Universiteti, Janubiy Koreya), G'arb falsafasidagi asosiy aksiologik yondashuvlar zamonaviy talqinlarining nazariy metodologik jihatlari o'rganilgan (Moskva davlat universiteti, Rossiya), zamonaviy jamiyatda ijtimoiy qadriyatlarning global rivojlanish holatlari va ijtimoiy munosabatlarni modernizatsiyalash masalalari o'rganilgan (Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti, Qozog'iston), qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy masalalari tadqiq etilgan (O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston).

Dunyoda zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda: G'arb qadriyatshunosligida subyektiv faktorning o'rni, jahon dinlari aksiologiyasi, jamiyat rivoji globallasuvi aksiologiyasi, qadriyat va haqiqat masalasi, milliy boshqaruv madaniyatida aksiologik ong, jamiyat taraqqiyotida

² <https://www.rutgers.edu>; <https://www.colorado.edu>; <https://www.uwindsor.ca>; <https://www.ed.ac.uk>; <https://www.abc.uva.nl>; <https://www.rug.nl>; <https://www.ku.dk>; <https://www.usi.ch/en>; <https://www.yonsei.ac.kr>; <https://www.ruongnamsan.edu.kp>;

moddiy va ma'naviy qadriyatlar omili, shaxs qadriyati, ijtimoiy qadriyatlarning o'ziga xosligi, fan aksiosferasida falsafiy asoslarning o'zgarishi, zamonaviy ta'lim madaniyatidagi innovatsiyalar aksiologiyasi kabi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aksiologiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tabiati, tarkibi, standartlari va bahosi, qadriyat hodisasini moddiy va ma'naviy jarayonlar rivojidadagi ahamiyati, obyekt va subyekt qadriyatini turli xalqlar, millat va elatlar hayotidagi o'rni o'rganiladi. Fransuz faylasufi Pol Lapi (1869-1927-yy.) bu fanni ifodalash uchun «Iroda mantig'i» asarida grekcha axios (qiymat) va logos (nazariya) asosida aksiologiya so'zini shakllantirgan.

G'arb falsafasi tarixida faylasuflar qadriyatni juda erta o'rganishgan. Qadimgi Yunonistondagi Pifagorchilar qadriyatning mohiyati sonda, masalan, salomatlik «7», adolat esa kvadrat sonda, deb hisoblashgan. Aflotunning fikricha, qadriyat aqlning mohiyati bo'lib, g'oyani odamlar sezgi orqali idrok etadi va u iyerarxik tizimga ega. Arastu qadriyat inson manfaatida yotadi, deb hisoblagan bo'lsa, Epikurning fikricha, baxt – qadriyat. Stoiklar fazilatni qadriyat deb bilishgan. O'rta asrlar xristian ilohiyotshunosligi Xudoni oliy qadriyat, zohidlik, xudoga intilish, keyingi hayotga umid qilishni esa eng ulug' qadriyatlar deb hisoblagan. Uyg'onish davri faylasuflari oqilona hayot kechirishni, erkinlik va tenglikka intilishni, inson mavqei va qadr-qimmatini yuksaltirishni insoniy qadriyat deb bilishgan. G'arb qadriyatshunosligi subyektiv oqimining F.Nisshe, U.Djeyms, J.Dyu'i, E.Fromm, R.Uil'yams kabi bir qancha mashhur namoyandalari³ ham bor. G'arb mamlakatlarida XX asrning boshlarida U.Djeyms qarashlari, keyinchalik Jon Dyu'i g'oyalari keng yoyilgan.

Shu bilan birga MDH davlatlari, Markaziy Osiyo mamlakatlari olimlari va mutaxassislari ham ushbu mavzuda sezilarli tadqiqotlar olib borganlar hamda ushbu sohadagi izlanishlar bugungi kunda ham davom etmoqda⁴. Sobiq Ittifoq olimlari qadriyatlarning tavsifi, miqyosi va o'rni doirasida tadqiqotlar olib

³ Ницше Ф. Нравственного идеалы нашего времени. – М.: 1893 // [⁴ Кривых С.Е. Aksiologiya mirovix religiy: sravnitel'naya tipologiya tsennostnyx struktur. Avtoreferat dis. ... kandidata filosofskix nauk. – Belgorod, 2009. – 21 s.; Nazarov A.Yu. Aksiologiya rukovodstva: tsennosti i tseli rukovodstva sovremenным sotsiumom. Dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk. – Ivanovo, 2008. – 193 s.; Baryshkov V.P. Aksiologiya lichnostnogo bytiya: Paradigma postsubstanttsial'nogo miroponimaniya. Dissertatsiya ... doktora filosofskix nauk. – Saratov, 2002. – 314 s.; Chernykh V.Yu. Aksiologiya sovremennoy otechestvennoy istorii: Sotsialno-filosofskiy analiz. Dissertatsiya ... doktora filosofskix nauk. – Perm', 2000. – 284 s.; Nazarova Yu.V. Aksiologiya parlament'skoy kultury. Dissertatsiya ... doktora filosofskix nauk. – Kursk, 2014. – 299 s.; Poltorakina E.V. Aksiologiya globalizatsii sovremennoy sotsiuma. Dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk. – Stavropol', 2001. – 171 s.; Litinskaya E.A. Aksiologiya sporta vyssixh dostizheniy v sovremennoy obshchestve. Avtoreferat dis. ... kandidata filosofskix nauk. – M., 2013. – 23 s.; Turuxina E.A. Aksiologiya telesnosti v kontekste sotsiokul'turnogo razvitiya. Dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk. – Saratov, 2008. – 148 s.; Rykova L.X. Transformatsiya filosofskix osnovaniy aksiiosferi nauki. Dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk. – Shaxty, 2018. – 194 s.; Xupeniya N.P. Tsennostnyy status traditsii v period sotsialnykh transformatsiy. Avtoreferat dis. ... kandidata filosofskix nauk. – M., 2019. – 26 s.; Suxorukh A.V. Aksiologiya innovatsiy v sovremennoy obrazovatel'noy kulturre. Avtoreferat dis. ... doktora filosofskix nauk. – Kursk, 2020. – 40 s.; Shestakov Yu.A. Aksiologiya istoricheskogo sotsnaniya v kulturre natsional'noy bezopasnosti. Avtoreferat dis. ... doktora filosofskix nauk. – Belgorod, 2022. – 35 s.](https://www.google.co.uz/books/edition; Фромм Э. Анатомия человеческой декруктивности. – М.: Наука. 1994. – 447 с.</p></div><div data-bbox=)

borganlar. Jumladan, M.S.Kagan, V.V.Vasilenko, V.Grechaniy va boshqalar⁵ qadriyatlar mavzusini «keng ma'noda» anglash g'oyasini olg'a suradilar. Ularning fikricha, «an'analarning umumiy g'oyasi umumijtimoiy kategoriyadir, chunki uni obyektiv asosi borliqni hamma shakllari bilan bog'langan»⁶. V.V.Grechaniyning mulohazasi esa quyidagicha, «aksiologik atamalar sistemalar tuzilishini maqsadga muvofiq holatini hamda ular faoliyatini biror maqsadga yo'naltirilganligini ifodalash uchun qo'llash mumkin bo'lgan umumfalsafiy tushunchadir»⁷.

Bizning mamlakatimizda ushbu mavzuning ildizlari qadimgi Sharq tarixi va qadriyati, «Avesto» asari va u yaratilgan zamonlarga, mumtoz xalq og'zaki ijodida saqlanib qolgan g'oya va qarashlar shakllangan davrlarga borib taqaladi. Keyinroq bu mavzu Imom Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Marg'inoniy, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur va boshqa allomalarimizning g'oya va qarashlarida, ularning faoliyati va amaliy ishlarida o'z ifodasini topgan. Bu borada xalqimizning mustaqillik yillaridagi bunyodkorlik ishlari, davlatimiz rahbarlarining mustaqillik yillaridagi faoliyati, asarlari va dasturlarida qadriyatlar masalasiga alohida ahamiyat qaratilayotganini ta'kidlash zarur albatta. Shu bilan birga, J.Tulenov, E.Yusupov, Z.G'ofurov, H.Shayxova, I.Saifnazarov, Q.Nazarov, O.Musurmonova, U.Qoraboyev, G.Tuleno, G.Maxmudova, M.Nurmatova, M.Qahhorova, Sh.Madayeva, R.Ro'ziyeva, N.Temirova, A.Qambarov, M.Mavrulova, M.Komilova⁸ kabi mutaxassislar bizning tadqiqotimizda ko'rib chiqilayotgan mavzuning ayrim masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishganini qayd etish lozim.

Ayni vaqtda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida qadriyatlar rivojining asosiy bosqichlari, bu borada qo'lga kiritilgan yutuqlar va natijalarga ta'sir ko'rsatgan omillar tadriji bilan bog'liq masalalar hanuzgacha mustaqil ilmiy

⁵ Каган М.С. 0 философском понимании ценности // Вестник ЛГУ. Вып.3, Серия 6; Системный подход и. гуманитарное знание. – Л.: ЛГУ, 1991; Василенко В.А. Ценность и оценка. – Киев: Наукова думка, 1992; Гречаний В. Истина и ценности. – Л.: ЛГУ, 1997.

⁶ Василенко В.А. Ценность и оценка. – Киев: Наукова думка, 1982. – 36 с. |

⁷ Гречаний В. Истина и ценность. – Л.: ЛГУ. 1987. – 19 с.

⁸ Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 335 б.; Туленов Ж., Гофуров З. Мустақиллик ва миллий тикланиш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 254 б.; Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Тошкент: Университет, 1998; Юсупов Э. Исломий қадриятлар ва экстремизм. – Тошкент: ТошТПИ, 1999; Юсупов Э. Қадриятлар ва уларнинг жамият ҳаётидаги ўрни. – Тошкент, 1995; Шайхова Х. Маънавият – камолот кўзгуси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2009; Саифназаров И. Янги Ўзбекистон: Инсон қадри улуғланган юрт. – Тошкент: “Илм-Зиё-Заковат” МЧЖ, 2023. – 209 б.; Саифназаров И.С. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. – Тошкент: Шарқ, 2011; Назаров Қ. Аксиология: қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Маънавият, 1998; Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти, 2004; Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). Тажрибавий қўлланма. – Тошкент: Академия, 2011. – 384 б.; Nazarov Q., To'xtayev X. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi.Darslik. – Toshkent: Universitet, 2022. – 276 b.; Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент, Шарқ, 2002; Туленова Г. Баркамол ёш авлод истиқлол таянчи. – Тошкент: Фан ва технология, 2004. – 128 б.; Махмудова Г.Т. Авестонинг фалсафий моҳияти. – Тошкент: Ношир, 2015. – 304 б.; Нурматова М. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. – Тошкент: Университет, 2009. – 126 б.; Мадаева Ш.О. Миллий менталитет ва демократик тафаккур (XX аср сабоқлари ва XXI аср истиқболлари). – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2007; Рўзиева Р. Жамиятнинг маънавий янгиланиши: миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлиги. – Тошкент, 2011; Қамбаров А. Жамиятнинг маънавий янгиланиши жараёнида илмий қадриятларнинг роли. Фалсафа фанлари номзоди ... диссер. автореферати. – Тошкент, 2006. – 25 б.; Маврулова М. Миллий қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт. – Тошкент: Зарварақ, 2022. – Б. 56; Комилова М., Абидова С. Миллий ахлоқий қадриятлар ва уларнинг тарбиявий аҳамияти. – Тошкент: Фан, 2000.

ish mavzusi sifatida alohida tahlil qilinmagan. Shu bilan birga, mustaqillik yillaridagi aksiologik taraqqiyotning mezonlari va tamoyillari, qadriyatlarni barqarorlashtirish bo'yicha muassasalar faoliyati dinamikasini tadqiq qilish va bugungi O'zbekistondagi islohotlar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatini o'rganish, ushbu jarayonning umumiy qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash katta e'tiborni talab etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Sotsial muammolarni o'rganishning ijtimoiy-tizimli metodlari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – Yangi O'zbekistonda qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar jarayonida aksiologiya qonuniyatlarining amal qilish dialektikasini tizimli tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mamlakatimizning istiqbolga erishishi va mustaqillik yillaridagi tub islohotlarning aksiologiya qonunlari amaliyotini optimallashtirish, qadriyatlar rivojini ta'minlash omili sifatidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish, ushbu jarayonning umumiy qonuniyatlari va milliy xususiyatlarni aniqlash;

taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygan Yangi O'zbekistonda qadriyatlar amaliyotini belgilaydigan aksiologik qonunlar ta'sirchanligini oshirish va ularning hozirgi transformatsiyasi tamoyillarining dialektikasi hamda dinamikasi mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;

Yangi O'zbekistonda qadriyatlarni takomillashtirish tizimi va uning tarmoqlari faoliyatini samarali tashkil qilish bo'yicha to'plangan milliy tajribani o'rganish hamda bu boradagi amaliy faoliyat mexanizmini optimallashtirish yo'llari va imkoniyatlarini ko'rsatish;

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ro'y berayotgan aksiologik o'zgarishlarning paradigmal asoslari hamda ustuvor yo'nalishlari, bu boradagi amaliyotni optimallashtirishning dialektik tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-aksiologik asoslab berish;

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida aksiologik qonuniyatlar amaliyotini yanada optimallashtirish, ushbu jarayonga ta'sir ko'rsatadigan omillar va chora-tadbirlar samarasini oshirishga xizmat qiladigan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini Yangi O'zbekistonda aksiologiya qonunlarining amal qilish mexanizmi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti zamonaviy aksiologiya qonunlarining Yangi O'zbekistonda amal qilish dialektikasi va dinamikasini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy va analitik tahlil, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, kuzatish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hozirgi davrda yurtimizda yangi qadriyatlar tizimini shakllantirish jarayoni va unda aksiologiya qonuniyatlari namoyon bo'lishining dinamikasi hamda dialektikasiga ta'sir ko'rsatadigan kreativ kognitiv innovatsion omillar va

yangilanish tamoyillarining mohiyati ochib berildi;

mamlakatimiz mustaqilligi davrida, qadriyatlar sohasini yangilash va paradigmal yondashuvlarni optimallashtirish, qadriyatlarga doir qonuniyatlarning amal qilishi va dinamik takomillashish bosqichlarida, aksiologiya qonuniyatlari transformatsiyasiga optimal ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-falsafiy g'oyalarning ahamiyati dalillandi;

mamlakatimizda barpo etilayotgan Yangi O'zbekiston jamiyatiga xos aksiologik o'zgarishlarning paradigmal asoslari, ustuvor yo'nalishlari, bu boradagi amaliyotni dinamik optimallashtirish va dialektik takomillashtirish yo'llari, yurtimiz qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar mexanizmining imkoniyatlari aniqlandi;

jamiyatimizning yangilanishi jarayonidagi aksiologik taraqqiyotni ta'minlashga doir amaliy faoliyat mexanizmini optimallashtirishning kreativ vositalari va sotsionik istiqbollarning yo'nalishlari asoslab berildi;

Yangi O'zbekistonda umuminsoniy va milliy qadriyatlar omilining transformatsiyasiga yordam beradigan, yangilanib borayotgan jamiyatimizda zamonaviy aksiologiya qonunlari amaliyoti samarasini oshirishga xizmat qiladigan paradigmal qadriyatlarning ahamiyati ochib berildi.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Yangi O'zbekistonda qadriyatlar rivojini belgilaydigan aksiologik qonuniyatlar amaliyotining transformatsion mexanizmi tamoyillarini takomillashtiradigan, bu boradagi islohotlar natijalariga ta'sir ko'rsatadigan omillar ahamiyati hamda yangilanishiga xos faoliyat tizimining joriy etilishi va amal qilish jarayonlari pragmatik jihatdan asoslangan;

Yangi O'zbekistonda qadriyatlar sohasi o'zgarishi va yangilanishi hamda bu jarayonda aksiologiya qonuniyatlari transformatsiyalashuvining amal qilish dialektikasini tizimli tadqiq etishga oid qator tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, dissertatsiyadagi xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular global o'zgarishlar sharoitida Yangi O'zbekistonda qadriyatlarni takomillashtirish tizimi va amaliyotini belgilaydigan aksiologik qonunlar transformatsiyasi tamoyillarining mazmun-mohiyatini tushunish hamda to'plangan milliy tajribani chuqur o'rganish va bu boradagi amaliy faoliyat mexanizmini optimallashtirish yo'llariga oid yangi nazariy, empirik tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining joylardagi bo'limlari, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining faoliyatidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida, talabalar bilan o'tkaziladigan muloqot va davra suhbatlarida, O'zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasining milliy qadriyatlarga oid ko'rsatuv va radioeshittirishlarida, «Qadriyatlar falsafasi», «Falsafa», «O'zbek falsafasi» fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarining Yangi O'zbekistonga xos namoyon bo'lish xususiyatlari» mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

hozirgi davrda yurtimizda yangi qadriyatlar tizimini shakllantirish jarayoni va unda aksiologiya qonuniyatlari namoyon bo'lishining dinamikasi hamda dialektikasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar va tamoyillarga oid ilmiy xulosalardan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-185-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan guvohnomaga muvofiq nashr qilingan «Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi» nomli darslikda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2023-yil 25-avgustdagi 02/02-01-119-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar darslikni yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitish imkonini bergan;

mamlakatimiz mustaqilligining ilk davridayoq qadriyatlar sohasini yangilash va optimallashtirish, qadriyatlarga doir qonuniyatlarning amal qilish va dinamik takomillashish bosqichlari, aksiologiya qonuniyatlarining ushbu jarayondagi transformatsiyasiga doir umuminsoniy jihatlari hamda milliy xususiyatlarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatiga doir ilmiy xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining faoliyatidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, targ'ibot-tashviqot ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 15-noyabrdagi 4-13-21-3317-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar mamlakatimiz yoshlarini tarix sinovlaridan o'tgan milliy qadriyatlarga sodiq, mustaqil dunyoqarash va teran fikrga ega, qat'iyatli qilib tarbiyalash maqsadida amalga oshirilgan ishlar targ'ibotining samaradorligi oshishiga xizmat qilgan;

mamlakatimizda barpo etilayotgan Yangi O'zbekiston jamiyatiga xos aksiologik o'zgarishlarning paradigmal asoslari, ustuvor yo'nalishlari, bu boradagi amaliyotni optimallashtirish va yanada takomillashtirish yo'llari, yurtimiz qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar mexanizmining imkoniyatlariga oid ilmiy xulosa hamda amaliy takliflardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining joriy yildagi rejasi 18-bandining «Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida vazirlik va idoralar, shuningdek hududlardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar holatini muntazam o'rganish va tahlil etib borish bo'yicha monitoringni yo'lga qo'yish» mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 15-noyabrdagi 02-22/1264-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar milliy mentalitetimiz hamda qadriyatlarimiz ta'sirchanligini oshirishga yordam bergan;

qadriyatlarni takomillashtirishga oid muassasalar tizimi va uning tarmoqlari faoliyatini samarali tashkil qilish bo'yicha tajriba chuqur hamda har tomonlama o'rganilib, bugungi kundagi aksiologik taraqqiyotni ta'minlashga doir amaliy faoliyat mexanizmini optimallashtirish yo'llari va istiqbollari ochib berilgan ilmiy xulosalardan O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi faoliyatida,

jumladan partiyaning dasturida belgilangan asosiy g'oyalardan kelib chiqib «milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» shiori atrofida birlashish asosida, har qanday sharoitda milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash; milliy madaniy va ma'naviy qadriyatlar, O'zbekiston xalqining urf-odat hamda an'analarni asrab-avaylash va boyitish sohasidagi tizimli ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 2023-yil 05-sentyabrdagi 02/04-54-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar global makonda milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga tahdid hamda xatar kuchayayotgan bugungi davrda milliy mentalitetimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'alarimizning qadrini oshirishda ilmiy manba sifatida xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda umuminsoniy va milliy qadriyatlar omilining transformatsiyasiga yordam beradigan, yangilanib borayotgan mamlakatimizda zamonaviy aksiologiya qonunlari amaliyoti samarasini oshirishga xizmat qiladigan qadriyatlar rivoji paradigmal ahamiyatga egaligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tomonidan chop etilgan «Jahon falsafasi qomusi» nomli 1-2 jild kitoblarda foydalanilgan (O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining 2023-yil 21-avgustdagi 09-sonli ma'lumotnomasi). Bularning barchasi, o'z navbatida, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining ilmiy va nashr faoliyatining optimallashtiruviga, «Jahon falsafasi qomusi» va «Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati» matnining takomillashuvi hamda mazmunan boyishiga ko'maklashan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish, shundan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola (10 tasi respublika, 3 tasi xalqaro jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 228 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu boyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti, tadqiqot usullari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Qadriyatlar sohasi va aksiologiya qonuniyatlari transformatsiyasini ilmiy-falsafiy o'rganish masalalari**» deb nomlangan

birinchi bobida «qadriyatlar sohasi» va «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili, aksiologiya qonuniyatlarining jamiyat hayoti bilan bogʻliqligi va namoyon boʻlish xususiyatlari hamda «qadriyatlar transformatsiyasi» tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni va oʻziga xos jihatlari tadqiq qilingan.

Ilmiy adabiyotlarda ularning aksiologik tarafidan koʻra, bu tushunchalarni umumlashtirib, yaxlit hodisa koʻrinishida yuzaga chiqadigan ijtimoiy mezon sifatidagi xususiyatiga ahamiyat qaratiladi. Bunday tavsiflarda ijtimoiy tahlil ustuvor ekanligi sezilib, qadriyatlarining odamlarni qalban va ruhan ulgʻaytirishi, ichki olamini boyitib, ruhini poklashi, iymon-eʼtiqodini mustahkamlab, insof-u adolat tuygʻularini ragʻbatlantirishi masalalariga urgʻu beriladi, shu bilan birga, qadriyatlarining jamiyat aʼzolari tayanadigan kuchli ruhiy omil sifatidagi asosiy xususiyati yoritiladi. Bunda, «aksiologiya qonuniyatlari» va «qadriyatlar sohasi» tushunchalarining mohiyat-mazmuni, oʻzaro bogʻliqligi namoyon boʻladi.

Dunyo olimlari eʼtibor markazida turgan ilmiy muammolar qatorida ushbu tayanch tushunchalarning hayotiy jarayonlar bilan uzviyligi masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu bejizga emas, albatta. Xilma-xil shakl va koʻrinishdagi tahdidlar avj olgan zamonaviy dunyoda «qadriyatlar sohasi» hamda «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalarining mazmun-mohiyatini tavsiflash, shu doiradagi muammolarni yechish uchun ularning oʻziga xos tabiatini hisobga olish maqsadga muvofiq boʻladi. Mazkur tushunchalar «insonning avvalo ijtimoiy-madaniy jihatdan mohiyatini ifodalab, shaxs, millat va jamiyatning moddiyatdan yiroq, oʻzaro maʼnaviy va madaniy munosabatlari hamda hayotiy qadriyatlarini oʻzida aks ettiradi»⁹.

Bu jihatdan, «qadriyatlar sohasi» tushunchasiga qadriyatli tizimlar tabiatiga xos tamoyillar asosida yondashilsa, ular hamma aksiologik tuzilmalarga oid umumiy mezon hisoblanishi ayon boʻladi. Tadqiqotimiz, mazkur tushunchalar bir-biriga qarshi qoʻyilmasligi va ularni alohida-alohida oʻrganish notoʻgʻri ekanligini koʻrsatadi. Metodologik jihatdan qaraganda, jamiyat aʼzolarining umumiy maqsadlariga mos keladigan totuvlikni taʼminlash asosiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, qanday boʻlmasin har bir jamiyatning oʻz qadriyatlarini boyitishda, avvalo, moddiy, qolaversa, maʼnaviy hayot sohalariga har tomonlama munosib aksiologik tamoyillarni diqqat markazida tutishi maqsadga muvofiq boʻladi. Chunki shundagina aksiologik va maʼnaviy sohalar uygʻunligiga erishish mumkin.

Tadqiqotimizdagi tayanch tushunchalardan biri boʻlgan «aksiologiya qonunlari» atamasining haqiqiy mohiyati shundaki, bizningcha u, muayyan jamiyat rivoji bilan hamohanglikda yuzaga keladigan, qator umumiy jihatlar bilan birga koʻplab oʻziga xosliklarda namoyon boʻladigan qadriyatlar omilining muttasil va takrorlanib turuvchi jarayonini, uning jamiyat va insonga doimiy taʼsirini anglatadi. Bu taʼrifda qadriyatli omillar jamiyat hayoti va undagi insonlar faoliyati natijasida yuz beradigan barcha oʻzgarish-u yangilanishlar bilan chambarchas bogʻliqlikni ifodalaydi.

⁹ Маънавият: асосий тушунчалар изохли луғати. Қ.Назаров ва бошқа. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – Б. 333.

Faylasuf olim Q.Nazarov tomonidan asoslab berilgan¹⁰ qadriyatlar sohasiga doir qonunlar «Aksiologiya qonunlari» tushunchasi uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Muallif ularni, qadriyatlar sohasiga doir narsa va hodisa, mavjud voqelik hamda kechayotgan jarayonlar orasidagi ajralmas aloqadorlikni, inson hayotining mazmun-mohiyatini, jamiyatdagi o‘rni kabilarni ifodalaydigan ko‘rsatkichlar, qonun-qoidalar majmuini bildiradigan tushuncha ekanligini alohida ta’kidlagan.

Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki tajriba bo‘lgan ushbu asarda quyidagi aksiologik qonunlar ta’riflab berilgan:

- qadriyatlar sohasining konkret jamiyat hayoti va inson faoliyati bilan uzviy aloqadorligi qonuni;

- qadriyatlar sohasidagi moddiylik va ma’naviylik uyg‘unligi qonuni;

- qadriyatlarning jamiyat yangilanishi, davr o‘zgarishlari va ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqligi qonuni.

Shu bilan birga, aksiologiyaning qadriyatlar tizimini jamiyatdagi ustuvor g‘oya va mafkura, madaniyat va ma’rifat kabi alohida sohalarga bog‘liq bo‘lgan talay qonun-qoidalari ham mavjud. Ular sanab o‘tilgan qonunlar bilan qadriyatlarga xos qoida va me’yorlar tizimini hosil qiladi, o‘z o‘rnida muayyan sohadagi narsa va hodisalar, turli jarayonlar vositasida yuzaga chiqadi.

Aksiologiya qonuniyatlari amaliyoti uchun jamiyat va inson hayotida nihoyatda muhim o‘rin egallaydigan ma’naviy hamda ma’rifiy qadriyatlar uyg‘unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nuqtayi nazardan «Yangi O‘zbekiston» tushunchasi demokratik tamoyillarga tayanadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamkorligiga asoslangan hamda aksiologiya qonunlari amal qiladigan fuqarolik jamiyatini o‘zida ifodalaydi. Aksiologiya qonuniyatlarini mamlakatimizning bugungi hayoti bilan uzviy aloqadorlikda tahlil qilish Yangi O‘zbekistonda yuz berayotgan ulkan o‘zgarishlarning qadriyatlar sohasiga xos tomonlarini kuzatish, to‘plangan ilmiy dalillarni amalda qo‘llash hamda kelajak vazifalarini va bu boradagi chora-tadbirlarni tuzishga imkoniyat yaratadi.

Bizningcha, «Aksiologiya qonuniyatlari» tushunchasining o‘ziga xos quyidagi xususiyatlarini ta’kidlash lozim:

1. Qadriyatlar sohasi va aksiologik faoliyat uyg‘unligi unga har tomonlama asos bo‘ladigan makonda shakllanib, xilma xil shakl va ko‘rinishda amalga oshadi hamda insonlar ongi, hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

2. Aksiologik jarayonlar va qadriyatlar jamiyat a’zolarining bir-birlari bilan munosabatlarida, turmush tarzlarida namoyon bo‘lib, ularning maqsad, intilish va ehtiyojlari uchun zamin vazifasini o‘taydi.

3. Aksiologiya qonuniyatlari va aksiologik voqelik moddiy, ma’naviy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi muayyan natija sifatida yuzaga keladi hamda o‘z navbatida, jamiyat a’zolari uchun ijtimoiy zaruriyat, umumiy mezon sifatida o‘ziga xos tarzda ta’sir qilish xususiyatiga ham ega bo‘ladi.

4. Bundan tashqari, jamiyatning qadriyatlar sohasi va aksiologik jarayonlar ijtimoiy rivojlanish jarayonida o‘zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar kashf

¹⁰ Назаров Қ. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomli nashriyat, 1994.

etib boradi, doimiy yangilanib turadi, shu bilan birga, vorislik orqali avloddan-avlodga o'tadi, meros qoladi.

5. Bu yo'nalishdagi ishlarning salmog'i va sifati shu soha barqarorligini ta'minlash, uni rivojlantirish borasidagi faoliyatning mazmunini belgilaydi.

Ana shu xususiyatlar mamlakatimizdagi qadriyatlar sohasining xos va umumiy jihatlari har bir yurtdoshimiz hayoti, kamolotiga, qolaversa, tarixiy va zamonaviy qadriyatlar, shaxslararo munosabatlarga, ta'lim-tarbiya, axloqiy, ma'rifiy muhit shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Sanalgan hodisalar turli shakl va ko'rinish, turli darajada ko'zga tashlanadigan, murakkab mazmun-mohiyatga ega tushunchalar bo'lib, bir urinishda ularga xos jihatlarni tahlil qilish imkonsizligi tushunarli, albatta.

Hamma davrda ham aksiologiya qonuniyatlari ijtimoiy soha bilangina emas, unga xos aksiologik tizim bilan ham uzviy aloqada o'z ifodasini topishi qonuniyat hisoblanadi. Mamlakatdagi davlat boshqaruv organlari, partiyalar, har qanday jamoat birlashmalari hamda fuqarolik institutlari qadriyatlar sohasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Sababi, bu tizim qadriyatlar tizimi sohasini boshqaradi, faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarida hayotdagi barcha sohalarga tegishli qoida va me'yorlar, axloq-odob normalari, ramzlar va milliy qadriyatlarga bog'liq qator jihatlarning o'rni ham salmoqli. Qadriyatlar sohasida xalqning mentaliteti va axloqiy tasavvurlariga mos xususiyatlar ajralib turadi. Shuning uchun ham jamiyatning qadriyatlar sohasi o'zining madaniyati, urf-odatlarini, davlat tili va davlat ramzlari timsolida xalqning aksiologik tafakkuri haqida ma'lumot beradi. Qadriyatlar sohasida aholining turli qatlamlari, ijtimoiy guruhlarining atrofdagi borliq, ijtimoiy voqelik, jamiyatdagi qonunlar, qadriyatlar xususidagi qarashlarining o'z o'rni bor. O'z-o'zidan asrlar davomida shakllanib, necha-necha avlodlar tomonidan e'zozlanib kelgan ijobiy g'oya va konsepsiyalar, an'analarning qadriyatlar sohasidagi ahamiyati beqiyos.

O'z navbatida, qadriyatlar sohasi o'z subyektiga ta'sir o'tkazishi, jamiyat a'zolarining hayotiy normalari hamda ma'naviy qadriyatlari o'zgarishiga sabab bo'ladi va odamlar zamonaviy aksiologiya qonuniyatlaridan talay muammolarning yechimini topa olishga, rivojlanishga, yangiliklarga tayyor turadi. Bunda inson va jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shadigan qadriyatlar sohasi hamda uning yetakchi tamoyillari dolzarb hisoblanadi.

Qadriyatshunoslik nuqtai nazaridan «qadriyatlar transformatsiyasi» tushunchasi, ma'lum shaklda namoyon bo'lib, har doim ijtimoiy-aksiologik mavjudlikning ma'lum davrdagi holati bilan qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarning qay darajada mutanosibliigi hamda ba'zi qadriyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, amalga oshirishini bildiradi. O'z navbatida, mazkur tushuncha ajdodning asrlar mobaynida to'plagan moddiy va ma'naviy qadriyatlarini vorislik asosida avlodlarga uzatish, bu borada tarixiy mezonlar va ijtimoiy hayot talablariga muvofiq tadrijiy ravishda muntazam boyib yoki yangilanib boradigan jarayonlarning namoyon bo'lishini ifodalaydi.

«Qadriyatlar transformatsiyasi» jamiyat va inson hayoti ushbu sohasining mavjud makon hamda zamondagi muttasil ijtimoiy-aksiologik harakati, ya'ni

uning doimiy ravishda yangilanishi, o'ziga xos tarzda o'zgarishi, rivojlanishi va boyib borishi jarayonini ifodalovchi tushuncha sifatida namoyon boladi.

Zamonaviy aksiologiya qonuniyatlariga xos dinamik jarayonlar mavjudligini shu sohadagi va turli darajadagi jihatlarining mohiyatini namoyon etuvchi hodisalar, fenomenlar isbotlaydi va ularning jamiyat hayoti ta'sirida shakllanadigan xususiy ko'rinishlari hamda shakllarning muttasil paydo bo'lib turishi esa, ushbu tushunchaning aksiologik voqelik bilan aloqasi mustahkamligidan dalolat beradi.

Bu jihatdan, «qadriyatlar transformatsiyasi» tushunchasi ma'lum hudud, mamlakatga xos belgi-xususiyatlar, ularni yuzaga keltirgan tuyg'ular, millat bilan bog'liq ma'naviy meros hamda madaniy boyliklarga aloqador jihatlarni ham qamrab oladi. U jamiyat va inson hayoti ushbu sohasining mavjud makon hamda zamondagi muttasil ijtimoiy-aksiologik harakati, ya'ni uning doimiy ravishda yangilanishi, o'ziga xos tarzda o'zgarishi, rivojlanishi va boyib borishi jarayonini ifodalovchi tushunchadir.

Qadriyatlar transformatsiyasi suratlari insonlar hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, shaxslararo munosabatlarning mustahkamlanishi, ma'naviy targ'ibot va tashviqot tadbirlarining natijadorligi bilan o'lchanadi.

Qadriyatlarning yangilanishi ham zamondagi o'zgarishlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ya'ni yangilanishlar qadriyatlar transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liq jihatdir. Qadriyatlar sohasi muttasil o'zgarib, yangilanib turmas ekan, zamondan ortda qolib, taraqqiyot yo'lidagi to'siqqa aylanib qolishi hech gap emas. Mamlakat taraqqiyoti uchun tub burilishlar paytida qadriyatlar sohasida ham keskin o'zgarishlar kuzatiladi va o'z o'rnida qadriyatlarning jamiyatda kechayotgan jarayonlarga ta'siri hamda qadriyatlar transformatsiyasining sur'ati ham tezlashadi.

Aksiologiya qonuniyatlari va qadriyatlar transformatsiyasini o'zlashtirish hamda anglash inson tafakkurining muhim xususiyati bo'lib, buning natijasi o'laroq odamning boshqalar bilan aloqasi bog'lanadi, o'zaro munosabatlarga kirishadi, bu holatda aksiologiya qonuniyatlari transformatsiyasi uchun ijtimoiy negiziga aylanadigan eng muhim omil o'z-o'zini namoyon etish ehtiyojidir. Bu ehtiyoj insonning o'zidan qaysidir sifatlarni izlash barobarida o'z imkoniyatlarini kashf etish, ularni yuzaga chiqarish bilan bog'liq holatdan tug'iladi. Inson shu tarzda irodasini namoyon qiladi va bu aksiologik tafakkurida ham o'z aksini topadi.

Umuman olganda, qadriyatlar transformatsiyasining tahlili jamiyatdagi ijtimoiy-aksiologik faoliyat natijalari, aksiologik-huquqiy va ma'naviy jarayonlar, ya'ni qadriyatlar sohasiga aloqador qator omillarni qamrab oladi. Bu yo'nalishda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish omili sifatida yuzaga chiqadigan hamda yurtimizda ro'y berayotgan islohotlar dialektikasining qadriyatlar transformatsiyasiga ta'siri va ahamiyatini ilmiy o'rganish tadqiqotimizning maqsadini belgilaydi.

Dissertatsiyaning «**Jamiyat tadriji va taraqqiyotining aksiologiya qonunlari amaliyoti hamda transformatsiyasiga ta'siri**» deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimiz hayotining tarixiy-ijtimoiy tadrijiyligi va

aksiologiya qonunlariga ta'sir ko'rsatadigan omillar murakkabligi, aksiologiya qonunlarining Renessans davrlariga xos xususiyatlari hamda qadriyatlar transformatsiyasi va aksiologiya qonunlarining amaliyotga ta'siri hamda amal qilish tamoyillari tahlil qilingan.

Tadqiqotimiz bu borada jamiyat hayotining hamma sohasida ko'zga tashlanadigan aksiologik o'zgarishlar transformatsiyasi ijtimoiy jihatdan madaniy taraqqiyot bilan birga hayotiy qarashlarning o'zgarishi natijasi bo'lishidan dalolat beradi. Bu jarayonda qadriyatlar sohasi transformatsiyasi biror bir davr, jamiyat hayoti va davlat siyosati, ma'naviyat, madaniyat va mafkura uchun muayyan mezon, bu sohadagi turli tashkilotlar va fuqarolarning birdamlikdagi harakatlari natijasi sifatida yuzaga chiqadi.

Bugungi kunda uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga kirishgan Yangi O'zbekistonda qadriyatlar bilan bog'liq omillar va aksiologiya qonuniyatlarining tarixda kamdan-kam xalqlarga nasib etadigan Uyg'onish davrlariga xos namoyon bo'lish xususiyatlari va amal qilish dialektikasini ilmiy-falsafiy o'rganish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki bunday Renessans davrlarida aksiologik omillar ta'sirchanligi kuchayishi, ularga e'tibor, qadriyat mezonlariga amal qilish darajasi ortishi kuzatiladi. Ushbu omillar muayyan xalq yoki birpor bir avlodning o'z tarixiy missiyasini to'la-to'kis anglab olishi, ezgu maqsadlar va milliy manfaatlar asosida birlashishi, qisqa davrda ulkan ishlarni amalga oshirishi uchun muhim ma'naviy tayanch va suyanch vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi dunyoda eng qadimiy va umumbashariy ahamiyatga molik, madaniyat ilm-fan, tafakkur, tamaddunlaridan biriga ega. Yurtimizda azal-azaldan turli madaniyat, konfessiyalar, millat va elatlar biri-birini o'zaro ta'sisi bilan boyitib, taraqqiy etib kelgan. Tabiiyki insoniylik, mehmondo'stlik, bahamjihatlik, birdamlik, Vatanga sadoqat, fidoiylik, o'zaro hurmat kabi qadriyatlar milliy-etnik, konfessional nizolarni oqilona bartaraf etish an'analari o'zbek xalqi ijodida o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyada, xalqimiz qadriyatlarining tarixiy genezisi va transformatsiyasida Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan madaniy hayot, an'ana va qadriyatlar muhim o'rin tutganligi hamda ular bugun ham o'z qimmatini yo'qotmay umuminsoniy qadriyatlari mohiyati va ahamiyati rivojiga ta'sir ko'rsatayotgan «Avesto», o'zbek xalqining qahramonona tarixi tasvirlangan «Alpomish» dostoni va boshqa Markaziy Osiyo xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyotiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan qadriyatlar sohasining falsafiy-tarixiy tahliliga ham e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyada Birinchi Renessans davriga asos bo'lgan, jahon tafakkuri, islom olami hamda o'zbek falsafasi taraqqiyotida katta o'rin egallagan ko'plab allomalarning qadriyatlari tizimi to'g'risidagi ta'limotlarining bugungi kundagi ahamiyati tahlil etib o'tilgan.

Xalqimiz dahosini yaqqol namoyon qilgan, islom falsafasi va milliy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatgan, hadisshunos olim va faylasuf Imom

Buxoriyning «Al-jome' as-sahih»¹¹ asari umum e'tirof etilgan olti – sahih kitobning birinchisidir. Imom Buxoriy umri davomida yozib olgan minglab hadislardan eng ishonli 7275 tasini ajratib shu kitobga kiritgan. Ushbu kitob shunday ulkan ma'naviy xazinaki, unda keltirilgan sahih hadislar «Qur'oni Karim» oyatlaridan keyin o'z zamonasida va keyinchalik ham Islom shariati, kalom va fikh ilmlarida Sha'riy hukmlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Imom Buxoriy «Al-adab al-mufrad»¹² inson axloqi, odobi, ma'naviy kamolotiga oid hadislar, jumladan, ota-ona oldida farzandlik burchlari, ota-onani rozi qilish, ularning haqini ado qilish, ularni dilini og'ritmaslik, ota-ona duosi, qarindosh-urug'larga mehr-shavqat, pahimdillik, takaburlikning yomonligi, jabr-zulmning yomonligi, rostgo'ylik va yolg'onlik, halol va harom, savob va gunoh ishlar kabi inson ma'naviyatiga doir muhim qadriyatlar, hadisi sha'riflar asosida fikr yuritiladi. Bundan tashqari Imom Buxoriy hadislarida ochko'zlik, munofiqlik, axmoqlik, nodonlik, gar tashish, buhton toshini yog'dirish va boshqalar, yaramas va tuban illatlar qattiq qoralanadi.

Demak, hadislarda illat masalasi muhim ahamiyat kasb etib, u bilan shug'ullanadiganlardan pok diyonat va taqvodorlik, qobiliyat talab qilinadi.

Mamlakatimizda Birinchi Renessans davrida shakllangan qadriyatlar tizimi va aksiologiya qonunlari amaliyoti islomiy ta'limot hamda islom falsafasining asoslari Qur'on va hadislarda bayon qilingan g'oyalar asosida shakllangan. Binobarin, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Imom Buxoriy, Burxoniddin Marg'inoniy, Iso va hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Baxouddin Naqshband, Xoji Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan»¹³.

Tadqiqotda qadriyatlar muammosi tahlilida tasavvuf tariqatining har bir shakli, o'z davrining mahsuli, muayyan sharoitlardagi talab, ehtiyoj va imkoniyatlarning ifodasi ekanligi hamda Kubroviya, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband ta'limotlarida poklik, hayo, bardosh, sabr-qanoat, chidam, xushxulqlik, beozorlik, hokisorlik, insonlarni halollikka chaqirish kabi ma'naviy qadriyatlarning asosiy shakllari tahliliga ham e'tibor qaratilgan. Umuman olganda, bu ta'limotlar o'z davrining ruhini ifoda etgani, hozir ham ma'naviy kamolotga ijobiy ta'sir etish mumkinligi sababli milliy chegaralar bilan cheklanmagan, ma'naviy qadriyatlar hisoblanadi.

Yurtimizda haqli ravishda «Ikkinchi Renessans» deb nomlanayotgan Temuriylar davri qadriyatlar sohasi transformatsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy, aksiologik asoslari markazlashgan davlatning bunyod etilishi, faqat moddiy farovonlik emas, balki ilm-fanning rivojlanishi, aql-zakovatda tengsiz qomusiy

¹¹ Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий Саҳиҳи Бухорий. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). 1-2 китоб. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.

¹² Имом ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад (Адаб дурдоналари). – Тошкент: Ўзбекистон, 1990; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф Одоблар хазинаси. 1-4 жуз. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2021.

¹³ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 1-tom. – B. 28.

allomalar yetishib chiqqanligi hamda ularning o‘lmas asarlari yaratilgani bilan xarakterlanadi. Ushbu asoslarning poydevori esa mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tilgani, kuchli davlat qurilganidir. Ana shunday ijtimoiy-aksiologik taraqqiyot va ma’naviy yuksalish tufayli mamlakatda tinchlik, adolat, farovonlik o‘rnatildi. Amir Temur asos solgan temuriylar davri Renessansining asosiy xususiyatlaridan biri ham islohotlar samarasi tufayli madaniy qadriyatlar sohasidagi tub o‘zgarishlardir.

Tadqiqot davomida qadriyatlar sohasidagi o‘zgarishlarga mustabid tuzimlarning ta’siri bilan bog‘liq tomonlari o‘z-o‘zidan qadriyatlar tarixiga qadimgi va o‘rta asrlar bilan birga yaqin o‘tmish XIX asrning oxiri hamda XX asrning 90-yillarigacha bo‘lgan davrdagi ijtimoiy-aksiologik jarayonlar jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Dissertatsiyada masalaga doir jihatlarni chuqur anglash uchun tadqiqotda vaqt va makon jihatdan mutlaq farqlanadigan uchta davlat hokimiyatining o‘zbek xalqi mentaliteti, turmush tarzi xususiyatlari hamda milliy qadriyatlar tizimini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi faoliyati qiyosan tahlil qilingan. Ko‘zda tutilayotgan davrdagi aksiologik jarayonlar xalq ma’naviy qiyofasida, milliy qadriyatlari rivojida salbiy iz qoldirgan, albatta.

Mamlakatimizning mustaqillik arafasidagi qadriyatlar sohasiga xos jarayonlar tahlilini sobiq ittifoqning oxirgi yillardagi tanazzuli va bu tanazzul oqibatlarini o‘rganmasdan turib qilib bo‘lmaydi. Sobiq tuzim davrida respublikalardagi ming yillik qadriyatlar, an’analar hukmron mafkura maqsadlari bilan uyg‘unlashmas, balki qadimiy qadriyatlarning ildizlari bilan saqlanishi qiyin edi. Sobiq ittifoqda qaysidir millat sha’ni va qadr-qimmatini yuksaltiradigan milliy madaniyatga yo‘l berilmas, hatto san’at va adabiyotda ham partiya mafkurasining, «sotsialistik realizm» metodining shiorlari ustuvorlik qilar edi. Bu esa jamiyat qadriyatlar sohasi transformatsiyasida aks sado berar, ya’ni uning ustuvor tamoyillari kommunistik mafkura va sovet tuzimi bilan bog‘liq bo‘lib, soha mafkura manfaatlariga to‘la bo‘ysundirilgan nazariyani amalda bunga erishish choralari ko‘rilardi.

Tadqiqotimiz davomida O‘zbekiston ana shu yillarda qadriyatlar sohasini takomillashtirish hamda unga ijobiy ta’sir o‘tkazadigan omillar samaradorligiga erishishda sohaga doir ko‘nikmalarni umumlashtirish va amaliyotda qo‘llash yo‘lidan borganligiga ishonch hosil qildik. Bu sohada qo‘lga kiritilgan tajribalarni ma’rifiy va aksiologik jihatdan ilmiy o‘rganish, uning samaradorligini ta’minlashda ham qat’iyat, ishonch va izchillikning qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida fikr hamda xulosalarni isbotlashga imkon berdi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizning shu yo‘nalishda ham butun insoniyatning ilg‘or tajribalari, ham o‘ziga xos milliy an’analari yo‘lidan borayotganligini isbotlaydi.

Dissertatsiyaning **«Aksiologiya qonunlarining mustaqil taraqqiyot tamoyillari bilan uzviy bog‘liqligi»** deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti – aksiologiya qonunlari transformatsiyasining asosiy omili hamda aksiologiya qonunlari amaliyotini optimallashtirish va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish dialektikasi ekanligi tadqiq etilgan.

O‘zbekiston Peshublikasi birinchilardan bo‘lib, Ittifoq tarkibidan ajralib chiqdi va o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanladi. 1991-yil 31-avgustda o‘z

mustaqilligini e'lon qilgach, o'z tili, o'z erkiga ega bo'ldi va jamiyatni taraqqiy toptirish imkoniyatlarini yarata bordi. Bugun bemalol aytish mumkinki, tarix oldida juda qisqa muddat hisoblangan yillar ichida davlat qurilishida ham, jamiyat boshqaruvi va xalq tafakkurida ham katta o'zgarishlarga erishildi. Mavzu doirasida olib borilayotgan tadqiqotimiz davomida O'zbekiston ana shu yillarda qadriyatlar sohasini takomillashtirish hamda unga ijobiy ta'sir o'tkazadigan omillar samaradorligiga erishishda sohaga doir ko'nikmalarni umumlashtirish va amaliyotda qo'llash yo'lidan borganligiga ishonch hosil qildik.

O'zbekiston Respublikasining aynan mustaqillik yillari davomida respublika hayotining har bir yo'nalishini qamrab olgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida xalqning ongi-tafakkuri o'sib, ma'naviy-ma'rifiy hayotida yangicha ma'no-mazmun paydo bo'la boshladi. Bu davrda shakllangan qator tushunchalar va atamalar haqidagi tasavvurlarimiz shakllandi, ularning mazmuni, ahamiyati aniqlashdi, hayot bilan uyg'un tarzda taraqqiy etib, tafakkurimizga singib bordi va bugun ular siyosiy hamda ma'naviy tafakkurimizni boyitgan qadriyatlarga aylandi. Bu esa, o'z o'rnida, boshqa omillar qatori milliy va umuminsoniy qadriyatlarning taraqqiyotiga xos belgi-xususiyatlarning asoslarini mustahkamlashning ahamiyatini oshirdi.

Istiqlolga erishilgach, O'zbekistonda yangi, mustaqil davlat barpo etilar ekan, unga mos qadriyatlar sohasining iqtisodiy-aksiologik kafolatlarini ta'minlash zarurati tug'ildi. Bu masalada qo'yilgan ba'zi qadamlar dunyoga keladigan yangi davlat va milliy taraqqiyotning ilk belgilari hamda o'ziga xos tomonlarini yuzaga keltiradigan jarayon sifatida ahamiyatli hisoblanadi.

O'sha davrdayoq shakllana boshlagan mustaqil davlatning qadriyatlar borasidagi harakatlarida quyidagi holatlarning ildizlari belgi bera boshlaganini ta'kidlash lozim:

mamlakatda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar qadriyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan zamonaviy ruhdagi kafolatlar tizimini yaratish;

har bir millat qadriyatlarining tarixiy negizlariga tayangan holda o'z qadriyatlar sohasini shakllantirish bilan bog'liq huquqlarini ta'minlash;

zaminimizdagi xilma xil millatlar qadriyatlarining bir-biriga uyg'un keladigan tamoyillaridan foydalangan holda ma'naviy taraqqiyotni yuksaltirish borasidagi faoliyatni jadallashtirish;

mamlakatimizdagi hamma millat va elat vakillarida vatanparvarlik hamda milliy g'urur, hamjihatlik tuyg'ularini rivojlantirish;

davlatimizning jamiyat qadriyatlar sohasidagi asosiy islohotchilik mavqeyiga asoslanib yurtimizda yashayotgan har bir millat va elatning o'ziga xos ma'naviy qadriyatlari hamda milliy merosini muhofaza qilish va bu yo'ldagi harakatlarni rag'batlantirish.

Bu sohada qo'lga kiritilgan tajribalarni ma'rifiy va aksiologik jihatdan ilmiy o'rganish, uning samaradorligini ta'minlashda ham qat'iyat, ishonch va izchillikning qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida fikr hamda xulosalarni isbotlashga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizning shu yo'nalishda ham butun insoniyatning ilg'or tajribalari, ham o'ziga xos milliy an'analari yo'lidan borayotganligini isbotlaydi.

Shu davrda qadriyatlar sohasi o'zgarishlarini ta'minlagan ijtimoiy-siyosiy tizim rivojlanishining mohiyatini tashkil qiladigan yangilanishlarning asosiy yo'nalishi bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy jarayonlarning, «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch!» tamoyili bilan uzviy bog'liq bo'lgani barchaga ma'lum. Bu borada ham, o'tgan yillar tajribasi mamlakatimizda mustaqil taraqqiyot yo'lining qadriyatlar sohasi o'zgarishlar dinamikasi uchun asosiy omil bo'lganini yaqqol ko'rsatadi.

2000-yilgacha bo'lgan davrda qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar tadrijiy tarzda amalga oshirilib, ularning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy evrilishlarga hamohang kechganligining ifodasidir. Ayniqsa, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tashkil etilishi, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at, televideniya, kino sohalarda yangi shakl va mazmundagi muassasalarning faoliyatga kirishishi mustaqillik davridagi birinchi bosqichga xos qadriyatlar sohasi o'zgarishlari dinamikasining ixcham qiyofasini belgilaydi hamda bu boradagi boshqaruv faoliyati samarali kechganini ko'rsatadi.

Ta'kidlash kerakki, islohotlarning birinchi bosqichi kechgan 1991-2000-yillar mobaynida demokratik tamoyillar asosida tashkil etilgan «Nuroniy», «Mahalla», «Yoshlar Ittifoqi» kabi tashkilotlar jamiyatimiz a'zolari ongi-tafakkuridagi o'zgarishlarga, qadriyatlar borasidagi yangilanishlarga o'z hissasini qo'shdi. Bu fuqarolik institutlari yangi asr yoshlarini tarbiyalash ishiga mas'uliyat bilan yondashdilar. Chunki XXI asr nafaqat globallashuv, balki qadriyatlar sohasi o'zgarishlari bilan uzviy aloqador jarayonlarni boshlab yuborgan yangilanishlar bilan tavsiflangani ma'lum.

Mustaqillik davri qadriyatlar sohasi transformasiyasida 2000-yildan boshlanadigan ikkinchi bosqich jamiyat hayotida barqarorlik, taraqqiyotning bosqichma-bosqich rivojlanish prinsipi jadal ishlayotgan, barcha sohalarda olib borilgan islohotlar qadriyatlar borasida ham o'z aksini topgan alohida davr sifatida tarixga kirdi. Istiqloqlarning dastlabki o'n yilliklarida olib borilgan islohotlar sirasiga odamlar ongi-tafakkuriga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan axborot tarqatish tizimini isloh qilish, ommaviy axborot vositalarining rivoji, huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda bu borada demokratiyaning umumjahon talablariga javob beradigan huquqiy asoslarni yaratish borasida olib borilgan ishlarni ham kiritish zarur.

Jamiyat ma'naviy-axloqiy rivojida ikkinchi bosqich deb hisoblanayotgan davrda barcha sohalarda bunyodkorlik va ezgulik g'oyalariga asoslangan ishlar davom ettirildi. Ayni shu bosqichda oldingi yillarda bunyod etilgan taraqqiyotning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy asoslari jahon tajribalari bilan boyitilib, tobora yangilanishlarga qadam qo'yildi. Bu boradagi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ko'zda tutilayotgan davrda yurtimizda qadriyatlar taraqqiyoti va unga eltadigan omillar samarasini oshirish, bu boradagi milliy va jahon tajribasini umumlashtirish hamda undan amaliy hayotda foydalanish amaliyoti bir-biri bilan mustahkam bog'langan va uzluksiz jarayon ekan. Shuning uchun mazkur sohada qo'lga kiritilgan tajribani faqat ijtimoiy-siyosiy jihatdan emas, «qadriyatlar falsafasi» yo'nalishi jihatdan ham organib, ijobiy tomonlarini umumlashtirish zarur. Mazkur yo'nalishdagi

davlat faoliyatida umuminsoniy tajriba hamda milliy an'ana va qarashlardan kelib chiqib ish yuritish tamoyili amal qiladi.

2010-yilda qabul qilingan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» o'z mohiyatiga ko'ra, davlat va jamiyat rivoji, jumladan, qadriyatlar sohasi transformatsiyasining prinsipial jihatdan yangi bosqichini boshlab bergan edi. Ushbu hujjat jamiyat hayotida ilgari boshlangan keng ko'lamli ishlarni barcha sohalarda yanada izchil davom ettirish dasturi bo'lishi bilan birga, qadriyatlar jabhasi taraqqiyotining keyingi yillardagi asosiy yo'nalishlarini ham belgilab bergan.

Aynan, mustaqillik davri taraqqiyoti uchun bunyod etilgan mustahkam poydevor quyidagi tarzda yaratilganini ta'kidlash lozim: qadriyatlar sohasi yangilanishining ijtimoiy-siyosiy asoslari shakllantirilgani va bu boradagi huquqiy mezonlarning ishlab chiqilgani; qadriyatlar sohasi o'zgarishlarini ta'minlaydigan iqtisodiy asoslar yaratilgani, bu sohada keng ko'lamli islohotlar va yangilanishlar amalga oshirilgani; avlodlar va ajdodlardan qolgan boy qadriyatlarimizni har tomonlama chuqur o'rganish, tiklash va asrab avaylash imkoniyatlari yaratilganligi; hayotning boshqa sohalari kabi qadriyat sohasida ham milliy va umuminsoniy jihatlar dialektikasini ta'minlash imkoniyati yaratilgani; milliy-etnik qadriyatlar va vijdon erkinligi tiklanib, jahon rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimiz asarlari keng targ'ib etilayotgani; butun mamlakatimiz aholisining ilm-fan va texnik salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotgani; jamiyat hayoti va aksiologiya qonunlari amaliyotida inson intellektual salohiyati ta'sirining ortib borayotgani hamda qadriyatlar sohasida innovatsion g'oyalarga e'tiborning kuchayganligi.

Mamlakatimizdagi modernizatsiyalashuvning eng asosiy xususiyatlari, avvalo, davlat va jamiyat hayotida barqarorlikni saqlash, pirovard maqsad bo'lgan demokratiya va fuqarolik jamiyati sari aholini oldindan amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlar sari bosqichma-bosqich tayyorlab borish kabilardir. Mazkur negizlar asosida islohotlar amalga oshipilishi va ular asosida rivojlanishining xususiyatlari:

birinchidan, umuminsoniy qadriyatlar, ya'ni insoniyat hayotidagi eng oliy qadriyatlardan hisoblangan, inson huquqlari, o'z fikrini ochiq aytish imkoniyati, davlat boshqaruvida xalqning keng ishtiroki va hokazo omillarning faqatgina demokratiyaga bevosita bog'liqligi;

ikkinchidan, demokratik qadriyatlarning jamiyat tomonidan qabul qilinishida pala-partishlikka yo'l qo'ymaslik, asrlar osha muqaddas bo'lib kelgan xalqimizning ma'naviy, madaniy qarashlari, milliy xususiyatlarimizni asrab qolish va ularni demokratik o'zgarishlar bilan uyg'un holda rivojlantirish;

uchinchidan, jamiyatimizdagi istiqomat qiladigan har bir shaxsga o'z imkoniyatlarini erkin ifoda qila olishi, shuningdek, demokratik qarashlarning keng ildiz otishi uchun asos bo'ladigan xavfsizlik omilining saqlanishi, uning asosiy ishtirokchisi hisoblangan insonlarda vatanparvarlik, uning taraqqiyoti va tinchligi uchun kurashadigan odamlarni tarbiyalashdan iboratdir.

2000-2015-yillarda davlat tomonidan axborot va so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatida, avvalo,

islohotlarning shaffofligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni faqat so'zda emas, amaliy hayotda joriy etishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, ikkinchidan, OAVni odamlar o'z fikrini erkin bildiradigan, jamiyatdagi voqea-hodisalarga munosabatini ifodalay oladigan haqiqiy minbarga aylantirish vazifasi ko'zda tutilib, OAVning haqiqiy «to'rtinchi hokimiyat»ga aylanishi, jamiyatda chin demokratik matbuotni shakllantirish borasidagi faoliyatga katta e'tibor berildi.

Bu jihatdan, mustaqillik davrida qadriyatlar transformatsiyasi sohasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy sohadagi turli nodavlat tashkilotlar, respublikadagi milliy-madaniy markazlarning aksiologiya qonunlariga qo'shadigan hissasi va ularning faoliyatini optimallashtirish borasida imkoniyatlarni qidirish kabi mavzular dolzarb ahamiyatga egaligi shubhasiz.

Bu aytilganlar bugungi kunga kelib o'z ahamiyatini namoyon etib, mustaqillikning hamma sohalar qatori qadriyatlar sohasining tamal toshi, amalga oshirilayotgan islohotlar uchun mustahkam zamin ekanligini ko'rsatdi. Shu ma'noda, bu borada tadqiqotimizdan kelib chiqadigan xulosalardan biri shuki: «O'zbekiston istiqloлга erishmaganida va mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tmaganida, bir tarafdin milliy davlatchilik asoslarini tiklash va yanada mustahkamlash, ikkinchi tomondan esa, respublikani demokratlashtirish, uni yangilash, uchinchi tomondan esa, milliy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyotda izchil va barqaror o'sish imkoniyatiga ega bo'la olmas edi»¹⁴.

Bugungi kunda yurtimizda yangi Renessansga intilishning mustahkam tarixiy ildizlari bor va bu xalqimizga kuch bag'ishlamoqda. Bu jarayonni hozirgi davrda ezgu qadriyatlarga tayanib erishilayotgan natija sifatida qabul qilish to'g'ri bo'ladi. Shunday yondashuv yurtimizning dunyo maydonida munosib o'rin torishi hamda Yangi O'zbekiston dovrug'ini yoyish, qolaversa, oldimizga qo'yilgan uchinchi Renessansni barpo etishdek maqsadlarga erishishda asosiy mezon hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi joriy etilayotgan hozirgi kunlarda qadriyatlar transformatsiyasi sohasidagi faoliyat natijalarini qisqacha tahlil qilish asosida ushbu strategiyaning soha rivojidagi ahamiyatini anglash nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Umuman olganda, istiqlolning 32-yillik tarixan qisqa muddatida aksiologiya qonunlarini jamiyat taraqqiyotini belgilovchi tayanch omillardan biri sifatida idrok qilish, inson manfaatlari, erkinligi va farovonligini to'la ta'minlash bilan bog'liq faoliyatning qadri hamda ahamiyatini to'g'ri anglash muhim ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **«O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida zamonaviy aksiologiya qonunlari amaliyotini optimallashtirish mexanizmi»** deb nomlangan to'rtinchi bobda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida aksiologiya qonunlarining amalga oshirilishi jarayonlari, Yangi O'zbekistonni strategiyasi – aksiologiya qonunlari tamaliyoti samarasini yuksaltirish omili hamda O'zbekistonda yangi ma'naviy-ma'rifiy makonni yaratishda qadriyatlar

¹⁴ Мустақил Ўзбекистон тарихи. - Тошкент: Академия, 2013. – 468 б.

omili ta'sirini oshirish yo'llari hamda imkoniyatlarini tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

Bundan yetti yil oldin O'zbekiston o'z rivojlanish tarixida yangi bir davrga qadam qo'ydi. Ushbu davrda boshlangan islohotlarni amalga oshirish uchun esa xalqimiz bilan bamaslahat tarzda ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi hayotga tatbiq etildi. Ayni vaqtda ushbu yo'nalishlarda boshlangan islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Jumladan, yangi muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylangan Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshlagan demokratik islohotlar yo'lini yanada qat'iy davom ettirishga qaratilgan, asosiy maqsadi «Inson qadri uchun» degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bo'lgan «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyili asosidagi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi e'lon qilindi. Bu esa, o'z navbatida, «hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni boshlanib borayotganidan dalolat beradi. Bu jarayonning eng muhim tushunchalari, «Yangi O'zbekiston» va «Uchinchi Renessans» so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda»¹⁵.


Bu jabhadagi qonunlar va tamoyillarni hozirgi kunimizga joriy qilishda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish hamda «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish va sohadagi barqaror rivojlanishni ta'minlash, ijobiy natijalarga erishish usul va vositalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiyot strategiyasining ma'naviy va ma'rifiy sohalar rivojlantirilishi bilan bog'liq yo'nalishida, yangilanishlar va o'zgarishlar jamiyatimizda amal qilayotgan aksiologiya qonunlari amaliyotida ro'y berayotgan yangilanishlarning bu boradagi tayanch asoslarini belgilaydi. Bu borada mamlakatimizda qadriyatlar omiliga va shu sohaga ma'naviy islohotlar ta'siri samarasini pasaytiradigan qator masalalar ham bo'y ko'rsatmoqda.

Bizning bu boradagi tadqiqotimiz ushbu yo'nalishda ba'zi masalalar va muammolarga alohida e'tibor qaratish zarurligidan dalolat beradi. Tadqiqotimizni olib borish davomida «Zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarining Yangi O'zbekistonga xos namoyon bo'lish xususiyatlari» mavzusida anketali sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. Sotsiologik so'rovnomada jami 800 ta respondent ishtirok etib, bunda 1-guruh 16-20 yosh 17.5 %ni; 2-guruh 21-25 yosh 21.4 %ni; 3-guruh 26-30 yosh 20.8%; 4-guruh 31-35 yoshlari esa 20.3 %ni tashkil etdi. Umumiy respondentlarning 40.5 % qismi erkak, 39.5 % qismi esa ayol jinsiga mansub ekaniga guvoh bo'lish mumkin.


Dastlabki savolda respondentlarimizning ma'lumotlilik darajasini aniqladik. Unga ko'ra, respondentlarimizning 21 % qismi o'rta, 30 %i o'rta-maxsus, 27 %i tugallanmagan oliy, 22 % qismi esa oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni tashkil etdi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. // "Yangi O'zbekiston", 2021 yil 17 avgust. <https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoyevning-yangi-uzbekiston-gazetasiga-bergan-tarixiy-intervyusi-tuliq>




1-rasm. Qadriyat deganda nimani tushunasiz?

So'rovnomamizning asosiy savolida respondentlardan qadriyat deganda nimani tushunasiz degan savol bilan murojaat qildik. Natijada, 46 % respondentlar qadriyatlarni – ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan meros, deya javob berishdi.




2-rasm. Siz qadriyatlarni qay darajada qadrlaysiz?

Navbatdagi savol, qadriyatlarni qay darajada qadrlashlariga e'tibor qaratdik. Respondentlarning 10 % qismi qadriyatlarni quyi darajada qadrlashini aytib o'tgan. Albatta, bu quvonarli holat emas, 23 % respondent esa quyidan yuqori darajani belgilagan, 52 % qismi esa o'rta darajada qadrlashini bildirgan, afsuski bor yo'g'i 15 % respondent qadriyatlarni yuqori darajada qadrlashini bildirgan.



3-rasm. Qadriyatlarga to'g'ri targ'ib qilish va to'g'ri amal qilishimiz uchun nimalarga e'tibor qaratishimiz kerak?

Tadqiqot davomida respondentlarga qadriyatlarni to‘g‘ri targ‘ib qilish va to‘g‘ri amal qilishimiz uchun nimalarga e‘tibor qaratishimiz kerak qabilidagi savol bilan yuzlandik. Bunda qadriyatlarni yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish eng samarali yo‘l ekanligini yuqori saviyada e‘tirof etib o‘tishgan.



4-rasm. Qadriyatlarning zamonaviylashishi kelajakda insoniyatga qanday zarar yetkazadi deb o‘ylaysiz?

So‘rovnomamizning quyidagi savoliga: Qadriyatlarning zamonaviylashishi kelajakda insoniyatga qanday zarar yetkazadi deb o‘ylaysiz? 27 % respondentning o‘ylashicha ajdodlarimizdan qolgan urf-odatlarining yo‘qolib borishi kelajakda insoniyatga katta zarar yetkazishi mumkinligi; 31 %i, ya‘ni eng yuqori ko‘rsatkich esa insonlar o‘rtasida mehr-muhabbat tushunchalarining sustlashishini aytib o‘tishgan.

Tadqiqotimiz natijalari shiddatli globallashuv jarayonlari, chetdan bo‘layotgan axborot xurujlari, turli shakl va ko‘rinishdagi vayronkor g‘oyalar milliy qadriyatlarimiz, milliy o‘zligimizga jiddiy xavf solayotganligi, ming yillik an‘analarimiz, qadriyatlarimiz, mentalitetimizga, axloqiy qarashlarimizga zid bo‘lgan odatlar, tushunchalar sezdirmasdan kirib kelib, jamiyat, ayniqsa yoshlarning qalbini egallab olayotganligi kabi holatlarning mavjudligidan dalolat beradi.

Ayni paytda, tadqiqotimizga ko‘ra ko‘r-ko‘rona g‘aribona madaniyatga ergashish, har xil zararli odatlarni o‘zlashtirish, milliylik, o‘zbekchilikdan uzilish hollari ro‘y berilayotganligi, bu qadriyatlar sohasida dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Natijada, ma‘naviy hayotimizda va qadriyatlar sohasida yuzaga keladigan ma‘naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik zarurligi, ammo so‘nggi paytlarda bola tarbiyasiga jamoatchilikning ta‘siri susayib ketib odamlarda loqaydlik va beparvolikning kuchayishi ma‘naviy tanazzulga olib kelish xavfi ortib borayapti.

Bu esa, o‘z navbatida, aholi orasida, ayniqsa uzluksiz ta‘limda aksiologik tarbiyani o‘ziga kelayotgan avlodning ehtiyojlari, talab va xohishlaridan kelib chiqqan holda kuchaytirish lozimligi, milliy qadriyatlar omili ta‘sirchanligini saqlash va oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy fanlarga munosabat darajasi oshirish kerakligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, yoshlarga zamonaviy ilmlar bilan bir qatorda, ularning qalbi va ongida azaliy qadriyatlarimiz mazmun-mohiyati bo‘yicha ham tushunchalar hosil qilishimiz, odob-axloq ruhida tarbiyalash zarur. Ayni paytda, ularga ilmga

asoslanmagan sohaning kelajagi yoʻqligini yana bir bor takrorlagan holda, milliy qadriyatlar targʻibotida ilmiy asoslangan zamonaviy usullarni, ichki va tashqi maʼnaviy tahdidlarga qarshi turishning yangi shakl hamda koʻrinishlarini ishlab chiqish lozim.

Albatta shu narsaga guvoh boʻlishimiz mumkinki, insonlar oʻrtasida mehr-muhabbatning yoʻqolib borishi insonlar kelajagiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bu masalalarni oldini olish davomida, bugungi yoshlarimizni yangi maʼnaviy makon ruhida tarbiyalashimiz dolzarb vazifa sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu esa hukumat tomonidan «Oʻzbekiston Respublikasining maʼnaviyat sohasidagi davlat siyosati toʻgʻrisida»gi qonunni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zaruriyatini keltirmoqda. Bu qonun yangi Oʻzbekistonni barpo etishda davlat siyosatining maʼnaviyat borasidagi faoliyatini kengaytirish, yangilanishlar, intilish va harakatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi, jamiyat maʼnaviy hayoti va undagi oʻzgarishlar dinamikasini tasavvur qilish imkonini beradi.

Bu borada yurtimizda yangi maʼnaviy makon – Yangi Oʻzbekistonning maʼnaviy qiyofasini namoyon etadigan, insonlar baxtli va totuv yashaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda maʼnaviyat tamoyillariga yoʻgʻrilgan jamiyatni barpo etish muhim zaruratga aylandi. Mamlakatimizda yangi maʼnaviy makon yaratishni maqsad qilingan ekan, xalqimizning maʼrifiy hayotidagi islohotlarni jadallashtirish, maʼnaviy muhitni sogʻlomlashtirish ishida sustkashlikka yoʻl qoʻymaslik talab qilinadi.

Shuni hisobga olgan holda, jamiyat maʼnaviyatiga, yoshlar tarbiyasiga masʼul boʻlgan mahalla, ulamolar, ijodkorlar, huquq-tartibot idoralari va boshqalar oʻz faoliyatini jadallashtirishi kerak. Ammo, shunisi achinarliki, oʻtkazilgan tahlillar amalga oshirilgan baʼzi ishlarning natijador emasligini va masalaga jiddiy qarash kerakligini koʻrsatmoqda. Jumladan, aholi orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, bagʻrikenglik, millatlararo totuvlik kabi umuminsoniy tamoyillarni singdirishning maʼnaviy asoslarini yaratish borasidagi ishlarni yanada samarali tashkil etish lozim.

Bugungi kunda aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga qilinayotgan gʻoyaviy tajovuzlar taʼsirida milliy qadriyatlarga nopisand qarash, turli zararli ruhdagi yoʻnalish yoki oqimlarga ergashish, ekstremistik kayfiyatdagi guruhlarga adashib qoʻshilib qolish holatlariga qarshi kurashni yangi bosqichga oʻtishini talab qilmoqda.

Yoshlarni turli koʻrinishdagi tahdidlardan asrash, ularni yuksak maʼnaviyat egasi qilib tarbiyalash mezonlarini ishlab chiqish borasida nazariy asoslar va ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli emas; yoshlar ongi va qalbiga vatanga sodiqlik, daxldorlik hissini singdirish masalalari ham dolzarblashmoqda.

Yurtimizda yangi maʼnaviy makonni bunyod etish hamda yangicha tafakkur tarzini tarbiyalash borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab qilinadi: maʼnaviy-maʼrifiy sohada hududlar kesimida maʼnaviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish; ommaviy axborot vositalari hamda nashriyotlar ishida milliy qadriyatlarimizga eʼtiborni oshirish, narkobiznes kabi chegara bilmas jinoyatlarga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish; koʻp millatli xalqimizning azaliy totuvlik va diniy bagʻrikenglik fazilatlarini mustahkamlash, yosh avlodga

islom dini bilan bir qatorda boshqa diniy qarashlarni hurmat qilish, boshqa millat vakillariga ehtirom ko'rsatish ruhini singdirish bo'yicha zarur tadbirlarni ishlab chiqish; tarbiya va ma'naviyat ishini tashkillashtirishda yuqori natijalarni qo'lga kiritgan davlatlar tajribasini o'rganish; hozir yurtimizda yuz berayotgan faoliyatni respublika miqyosida yangi bosqichga olib chiqish samaradorligini oshirgan holda tashkil qilish.

Yangi davrda mamlakatimizni taraqqiy ettirish strategiyasining amaliyoti jamiyatimizda aksiologiya qonuniyatlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'layotganidan dalolat beradi. Bu borada dialektikaning inkor va vorislik, inkorni inkor va yangilanish bilan bog'liq falsafiy tamoyillari hayotimizning barcha sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ayni paytda ishlab chiqilgan «Yangi O'zbekiston – 2030 strategiyasi» esa ushbu jarayonning mantiqiy davomi va yaqin kelajakdagi yangi qadriyatlar tizimi shakllanishi, bu jabhadagi yangilanishlar hamda transformatsiya bilan bog'liq ijtimoiy-akseologik voqeliklarning muhim omili ekani shubhasizdir.

Hozirgi davrda tobora yangilanib borayotgan mamlakatimizda qadriyatlar transformatsiyasi va aksiologiya qonunlari amaliyotida umumbashariy muammolarning milliy darajadagi yechimlari muhim ahamiyatga ega albatta. Ammo O'zbekistonni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqishdek ulkan ahamiyatga molik vazifalarning ijrosi ham aksiologiya qonunlarining umuminsoniy mezonlarini mustahkamlash va uning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Demak, Yangi O'zbekistonda yangi qadriyatlar shakllanishi, xalqimiz ongi va qalbidan joy olish jarayoni jadallik hamda onglilik bilan sodir bo'lmoqda. Bu jarayon bir tekis va ziddiyatsiz borishi mumkin emas. Uning yo'lida baland-pastliklar, chuqurlik va jarliklar uchrashi tabiiy. Ammo O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan umumxalq Referendumi yaqqol isbotlaganidek, endi odamlarimizning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi tubdan o'zgarimoqda, o'z kuchi va qudratiga, yaratuvchanlik salohiyatiga, yoshlarimizning kelajagiga ishonch tobora ortib bormoqda.

XULOSA

«Zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarining Yangi O'zbekistonga xos namoyon bo'lish xususiyatlari»ni tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. «Aksiologiya qonuniyatlari» tushunchasi «Qadriyatlar sohasi» kategoriyasining xususiyatlarini aks ettiribgina qolmay, bu sohaga taalluqli ijtimoiy, iqtisodiy va aksiologik jihatlarni ham amaliy faoliyatida qamrab oladi. Shu tarzda odamlar va jamiyat hayotining ma'naviy salohiyati, ijobiy barqarorligi va tizimlilikiga erishiladi, bu jarayon samaradorligi natijasida qadriyatlar sohasining tub negizlari rivojlanadi. Natijada, jamiyat hayotining ma'naviy asoslari yanada mustahkamlanadi va aksiologiya qonunlari barqarorlashadi.

Aksiologiya qonunlari jamiyatning muayyan qadriyatlar tizimi, xalqlarning hayotiy sharoitlari zaruriyatidan shakllanadigan, o'tmishi, buguni va kelajagi,

madaniy merosi, milliy ruh, milliy til va muomala, yashash va tafakkur tarzi kabi umumiy jihatlari bilan tavsiflanadigan, o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan ijtimoiy-tarixiy mazmun va aksiologik mohiyatga ega bo'lgan tushunchadir.

2. Aksiologiya qonunlari muayyan jamiyatning tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlashga, uning a'zolari ongiga o'ziga xos reallik sifatida, rang-barang tarzida ta'sir qiladi. U jamiyatdagi yashovchi insonlarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlanib, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun muayyan qonunlar sifatida namoyon bo'ladi.

3. Aksiologiya qonunlari, turli shakllarda namoyon bo'lib, jamiyatdagi yashash talablari, qonun-qoidalari, inson hayotining mazmuni, mezonining ahamiyatini saqlab qoladi. Qadriyatlar sohasiga xos aksiologik qonunlarga tayanilgan va ular ushbu soha mutaxassislari uchun metodologik konseptual tizim hosil qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi: a) aksiologiya qonunlarida ma'naviy va moddiy jihatlarning uyg'unligi; b) aksiologiya qonunlarining ijtimoiy voqeylik bilan dialektik bog'liqligi; v) aksiologiya qonunlari namoyon bolishining jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorligi.

4. Qadriyatlar transformatsiyasi tushunchasi ajdodlarning asrlar mobaynida to'plagan moddiy va ma'naviy qadriyatlarini vorisiylik asosida avlodlarga uzatish, bu borada tarixiy mezonlar va ijtimoiy hayot talablariga muvofiq tadrijiy ravishda muntazam boyib yoki yangilanib boradigan jarayonlarning namoyon bo'lishini ifodalaydi. Tarixiy taraqqiyot bilan uyg'un bo'lgan bu holat uzluksiz harakatdagi jarayondir.

5. Qadriyatlar transformatsiyasi tushunchasini aksiologik tomondan jamiyat va uning har bir a'zosi, muayyan ijtimoiy-aksiologik subyektlarning asosiy xususiyatlari, ularning yuz berayotgan o'zgarish tendensiyalarini belgilovchi o'zaro aloqalar va munosabatlar majmui hamda bu jabhadagi yangilanish sifatida tushunish lozim. Qadriyatlar sohasi o'ziga xos aksiologik makon bo'lib, uning doirasida mamlakat xalqi va fuqarolarining fikrlari shakllanadi, jamiyatda esa tarixiy-madaniy, diniy va milliy qadriyatlar o'ziga xos tarzda mavjud bo'ladi hamda amal qiladi.

6. Jamiyatning qadriyatlar sohasi, uning a'zolari uchun ijtimoiy zaruriyat, umumiy mezon sifatida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lish xususiyatiga ega bo'lib, shaxsning ijtimoiylashuvida takomillashib o'zgarib boradi, rang-barang yangilanish jarayonini vorisiylik orqali avloddan-avlodga yetkazib berib, natijada meros sifatida namoyon bo'ladi.

7. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalarda o'zgarishlar bo'lgani singari qadriyatlar tizimida ham muayyan o'zgarishlar ro'y berishi tabiiy hisoblanadi. Murakkab va serqirra yangilanish jarayonida mavjud bo'lgan hayotning qadriyatli xususiyatlari, yangi aksiologik tizim sifatida yangi davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga muvofiq holda shakllanadi hamda yangi qadriyatli tizim sifatida takomillashib boradi.

8. Ijtimoiy-falsafiy fanlar nuqtai nazaridan aksiologiya qonunlarining jamiyat taraqqiyoti natijasidagi rivojlanishi sifat va miqdor jihatidan o'zgarishlar tarzida tavsiflanadi.

Jamiyat aksiologiya qonunlarining qiyofasi muayyan jarayondagi uyg'unlik va o'zgarishlar yangilanishlarga ta'sir ko'rsatib, jamiyat rivojida fan, madaniyat, adabiyot, san'at bilan bog'liq sohalar xususiyatlarining rivojida namoyon bo'ladi hamda jamiyat sohalaridagi jarayonlarning mazmun- mohiyatini boyitib boradi.

9. O'zbekiston mustaqillikka erishgach xalqimiz hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlar kabi aksiologiya qonunlari amaliyotida ham ko'plab yangilanishlar va islohotlarni amalga oshirish imkonini yaratdi hamda aholi ongi va tafakkurining o'sishi, hayotiy turmush tarzining tubdan o'zgarishiga turtki bo'lmoqda.

10. Mustaqillik yillaridagi taraqqiyotning navbatdagi bosqichini boshlab bergan 2016-yildan boshlangan va besh yil davomida amal qilgan asosiy dastur – Harakatlar strategiyasi doirasida qilingan ishlar natijasida ijtimoiy hayotning hamma sohalarida butunlay yangi tamoyillar yuzaga keldi. Bularning bari istiqloq yillarida yurtimiz bo'ylab amalga oshirilgan yangilanish va islohotlar borasidagi faoliyatning qadriyatlar sohasidagi natijadorlikni belgilaydigan jarayonlarga bog'liq asoslari paydo bo'lganini ko'rsatadi.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida qadriyatlar sohasiga xos innovatsiya va transformatsiya jarayonlari mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida aksiologiya qonunlari amaliyotiga doir yangilanishlarga ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Ushbu aksiologik jarayonning dialektikasi va dinamikasini yangi O'zbekiston taraqqiyotiga xos raqamlar hamda dalillar asosida ilmiy tahlil qilish va zarur xulosalarga kelish mumkin.

11. Yangi O'zbekistonda rivojlangan mamlakatlar darajasidagi taraqqiy etgan demokratik mamlakatni, jumladan, yangi aksiologik makonni barpo etish zarurati keyingi yillarda xalqimiz hayotidagi hamma soha va yo'nalishlar qatori qadriyatlar sohasidagi olib borilayotgan islohotlar uchun ham boshlang'ich nuqta, tamal toshi bo'lib xizmat qildi. Uzluksiz asosda olib borilayotgan islohotlar davlatimizning barqaror rivojlanishi bilan birga, qadriyatlar rivojining izchil sur'atlarini ta'minlamoqda. Bu jihatdan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi jamiyat hayotining barcha sohalarini yangilanish va demokratlashtirishga qaratilgan muhim hujjatdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.12.2019.F.01.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ТУХТАЕВ ХАКИМ ПРИМОВИЧ

**ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ
АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ЗАКОНОМЕРНОСТЕЙ В НОВОМ
УЗБЕКИСТАНЕ**

09.00.04 – Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент– 2024

Тема диссертационной работы доктора философских наук зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2022.3.DSc/Fal144.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (русский, узбекский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (ik-falsafa.nuu.uz) а также на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

| | |
|-------------------------------|---|
| Научный консультант: | Назаров Киёмиддин Нормирзаевич доктор философских наук, профессор |
| Официальные оппоненты: | Алиев Бекдавлат доктор философских наук, профессор Туленова Гулмира Жандаровна доктор философских наук, профессор Хусейнова Абира Амановна доктор философских наук, профессор |
| Ведущая организация: | Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова |

Защита диссертации состоится 6 июня 2024 года в 14:00 часов на заседании Научного Совета DSc.30.12.2019.F.01.05 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, город Ташкент, Студенческий городок, Центр Союза молодежи. Tel.: (+99871) 246-67-72, faks: (+99871) 246-67-72; E-mail: ik-falsafa@nuu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №43). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Административное здание Национального Университета Узбекистана, 2-этаж, 4-кабинет. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан 23 мая 2024 года.

(протокол реестра рассылки под №7 от 23 мая 2024 года.

И.Саифназаров,
Председатель Научного совета
по присуждению научных степеней,
доктор философских наук, профессор

Г.Шадиметова,
учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор философии (PhD)

У.Г.Тилавов,
председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней,
доктор философских наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Интеграция общечеловеческих и национальных ценностей в мировом масштабе играет преобладающую роль в обогащении сокровищницы науки и культуры человечества. Однако столкновение глобальных интересов, являющееся одним из важных факторов кризиса ценностей в современном мире, вызывает серьезное беспокойство у всего человечества. Именно этот кризис ценностей современной цивилизации, являющийся причиной переоценки таких общечеловеческих принципов, как гуманизм, забота о мире, свобода, межнациональное согласие, вызывает необходимость изучения аксиологических закономерностей в контексте новых научно-практических парадигм.

В научных и социальных проектах авторитетных университетов и научно-исследовательских институтов мира особое внимание уделяется изучению влияния трансформации сферы ценностей культуры Востока и Запада на жизнь общества, модернизации теории и практики аксиологических законов, трансформации ценностей, их рационального и конструктивного аспектов. Наряду с этим в современном мире актуальное значение приобретают бережное сохранение национальных и общечеловеческих ценностей, применение креативных и действенных методов в духовно-просветительской работе в области аксиологии, постоянный научный мониторинг и прогнозирование аксиологических процессов, укрепление межнационального согласия и религиозной толерантности на основе общечеловеческих ценностей, глубокий анализ аксиологических процессов в научно-практическом аспекте.

В Новом Узбекистане осуществляется проводится большая работа в области национальных и общечеловеческих ценностей. В последние годы считается важным построение общества, соответствующего требованиям национальных и общечеловеческих ценностей. В этом отношении “Одной из важных для нас задач является воспитание в духе национальных и общечеловеческих ценностей молодежи, обладающей высокой духовностью, современными знаниями и профессиями, собственным независимым мнением”¹⁶. Реализация величественной идеи “во имя ценности человека” в основах Стратегии развития Нового Узбекистана, а также объявление 2022 года “Годом обеспечения интересов человека и развития махалли”, а 2023 года “Годом заботы о человеке и качественного образования” направлено на возвеличивание ценности человека, полноценную реализацию прав и свобод, законных интересов каждого человека, живущего в нашей стране. Вместе с тем актуальность приобретают аксиологические вопросы перехода Узбекистана на новый этап развития и задачи глубокого и всестороннего изучения диалектики их связи с современной практикой.

¹⁶ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yolimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. (Решительно продолжим наш путь национального развития и поднимем его на новый уровень). – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 1- tom. – B.88-89.

Настоящая диссертация в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы”, УП-158 от 11 сентября 2023 года “О стратегии «Узбекистан – 2030»”, ПП-3160 от 28 июля 2017 года “О поднятии на новый уровень повышения эффективности духовно-просветительской работы и развития сферы”, ПП-5040 от 26 марта 2021 года “О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы” и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. “Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации”.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹⁷. Научные исследования, посвященные изучению современных аксиологических закономерностей, проводятся в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях, в том числе в Oxford University, Cambridge University, Manchester University (Великобритания), Massachusetts Institute, Indiana University (США), Kyoto University (Япония), Сеульском Национальном университете (Южная Корея), Московском государственном университете (Россия), Казахском национальном университете имени Аль-Фараби (Казахстан), Национальном университете Узбекистана (Узбекистан).

Во всем мире в результате исследований, посвященных современным аксиологическим закономерностям, получен ряд следующих научных результатов: интеграция современных аксиологических закономерностей раскрыта на основе ценностей англо-саксонских народов (Oxford University, Великобритания); раскрыта классификация предметной аксиологии на основе различных детерминант ценностей в английской и американской философии, аксиология объекта, двухфакторная аксиология и трехфакторная, корреляция ценностей (Cambridge University; Manchester University, Великобритания, Massachusetts Institute, США), с глобальной точки зрения раскрыто влияние японской системы ценностей на развитие сферы ценностей стран Ближнего Востока, Северной Африки, Индии, Южной Азии, Центральной Азии, Юго-Восточной Азии, Восточной Европы, Центральной и Южной Америки (Kyoto University, Япония), рассмотрен первичный уровень аксиосферы существования человека (Сеульский Национальный университет, Южная Корея), изучены теоретико-методологические аспекты

¹⁷ <https://www.rutgers.edu>; <https://www.colorado.edu>; <https://www.uwindsor.ca>; <https://www.ed.ac.uk>; <https://www.abc.uva.nl>; <https://www.rug.nl>; <https://www.ku.dk>; <https://www.usi.ch/en>; <https://www.yonsei.ac.kr>; <https://www.ruongnamsan.edu.kp>;

современных интерпретаций основных аксиологических подходов в западной философии (Московский государственный университет, Россия), изучены вопросы глобального развития социальных ценностей в современном обществе и модернизации социальных отношений (Казахский национальный университет имени Аль-Фараби, Казахстан), исследованы социально-философские вопросы ценностей (Национальный университет Узбекистана, Узбекистан).

Во всем мире проводятся научные исследования, посвященные изучению современных аксиологических закономерностей, в том числе по следующим приоритетным направлениям: роль субъективного фактора в западной аксиологии, значение материальных и духовных ценностей в развитии общества, истина и ценность, аксиология мировых религий, аксиология существования личности, аксиологическое сознание в культуре национальной безопасности, аксиология глобализации современного общества, специфические особенности социальных ценностей, изменение философских основ в аксиосфере науки, аксиология инноваций в современной культуре образования.

Степень изученности проблемы. В аксиологии изучены природа, структура, стандарты и оценка национальных и общечеловеческих ценностей, значение явления ценности в развитии материальных и духовных процессов, роль ценности объекта и субъекта в жизни различных народов, наций и народностей. Французский философ Поль Лапи (1869-1927гг.) в работе «Логика воли» вводит для обозначения этой научной дисциплины термин аксиология (от греч. *axios* — ценный). В истории западной философии философы очень рано начали изучать ценности. В Древней Греции Пифагорейцы считали, что сущность ценности заключается в числах, например, здоровье – это “7”, справедливость – квадратное число. По мнению Платона, ценность является сущностью разума, то есть идею люди воспринимают посредством ощущений, она имеет иерархическую структуру. Аристотель считал, что ценность заключена в интересах человека, по мнению же Эпикура, счастье – это ценность. Стоики считали ценностью качество. Средневековая христианская теология считала Бога высшей ценностью, великими ценностями считались также отшельничество, стремление к богу, надежда на жизнь после смерти. Философы Эпохи Возрождения считали человеческими ценностями рациональный образ жизни, стремление к свободе и равенству, возвышение статуса и ценности человека. Знаменитыми представителями субъективного направления западной аксиологии были такие философы, как Ф.Ницше, У.Джеймс, Ж.Дьюи, Э.Фромм, Р.Уильямс¹⁸. В начале XX века в западных странах были широко распространены взгляды У.Джеймса, а затем идеи Джона Дьюи, которые оказали большое влияние на все сферы.

¹⁸ Ницше Ф. Нравственного идеалы нашего времени. – Москва, 1893.

(<https://www.google.co.uz/books/edition/>); Фромм Э. Анатомия человеческой декруктивности. – Москва: Наука. 1994. - 447 с.

